


“XORAZM JADID MAKTABLARI” NOMLI MONOGRAFIYA NASHR QILINDI

Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Umid Bekmuhammad va filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayyora Samandar hammuallifligida “Xorazm jadid maktablari” nomli monografiya nashr etildi.



Mazkur monografiyada Xorazm jadidchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari va ularning boshqa hududlardagi maktablardan farqli tomonlari tadqiq qilingan. Shuningdek, Xorazm jadid maktablarining tashkilotchilari, ulardagi ta'lim jarayoni, ilk pedagoglarning hayoti, faoliyati, o'qitish uslubi tahlil etilgan.

Shu bilan birga, jadid maktablariga aholining munosabati, o'quvchilarning ta'lim olishi va ularning keyingi faoliyatlari, taqdiri yoritilgan.

Monografiyaga jadid maktablaridagi darslik, qo'llanmalar ilova qilingan. Monografiya oliy o'quv yurtlarining tarix va pedagogika, filologiya fakulteti talabalari, doktorantlar, tadqiqotchilar, o'rta maktablarning o'qituvchilari hamda keng omma uchun mo'ljallangan.